



## **XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING QARORI**

2025-yil 8-iyul

VII-9-69-11-163-K/25

Farg‘ona tumani

### **Tuman mahalliy byudjetining 2025-yilgi xarajatlar manbaiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-455-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-fevraldagi 6-sonli yig‘ilish bayoni, Iqtisodiyot va moliya vazirligining joriy yil 3-yanvardagi 1-sonli buyrug‘i, Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasining 2-m-sonli, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, g‘aznachilik boshqarmasining 2025-yil 5-fevraldagi 16-m va 9-m-sonli hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, g‘aznachilik boshqarmasining 2025-yil 26-fevraldagi 25-m-sonli qo‘shma buyruqlari ijrosini ta’minlash maqsadida tuman mahalliy byudjeti xarajatlar manbaiga o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashi

### **QAROR QILADI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda PQ-455-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-fevraldagi 6-sonli yig‘ilish bayoni hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining joriy yil 3-yanvardagi 1-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida, mahalliy byudjet xarajatlarning ijrosini tahlil qilish asosida qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lmagan, samarasiz va past samarali xarajatlar bo‘yicha tuman mahalliy byudjetiga maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan quyidagicha o‘zgartirishlar kiritilib mablag‘lar ajratilsin:

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Farg‘ona tumanlararo sudining 2025-yil 20-martdagi hamda 2025-yil 9-maydagi 2-1501-2402/19330 sonli ijro varaqasiga asosan Obodonlashtirish boshqarmasiga davlat boji uchun 7 122,2 ming so‘m, fuqaro Dadajonova Yorqinoy Shamshidinovnaga kompensatsiya to‘lab berish uchun 178 057,2 ming so‘m;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-fevraldagi 84-sonli qaroriga asosan tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga bo‘lim tasarrufidagi 1, 2, 7, 13, 20, 53-sonli maktablar qoshida ochilishi rejalashtirilgan

o'quvchilar uchun kunduzgi sog'lomlashtirish oromgohlari uchun oziq-ovqat xarajatlariga 200 000,0 ming so'm;

**2.** Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Yusupov)ga, tuman mahalliy byudjeti xarajatlar manbaiga kiritilayotgan o'zgartirishlar bo'yicha tegishli tashkilot va muassasalarning 2025-yilgi xarajatlar smetalariga o'zgartirishlarni belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

**3.** Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar rahbarlari tomonidan 2025-yilgi xarajatlar smetalariga o'zgartirishlar kiritilganligi inobatga olinsin hamda aniqlangan xarajatlar smetalari bo'yicha mablag'larni maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

**4.** Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Yusupov)ga tuman mahalliy byudjetining 2025-yilgi xarajatlar manbaiga kiritilayotgan o'zgartirishlarni viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bilan kelishgan holda amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

**5.** Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi M.Yo'ldashev hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari O.Abduraximov zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi



ABDURAXMONOV  
ILXOMJON  
AKBARALIYEVICH